

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.A.Abdualiyeva	
Markaziy Osiyo o'rtta paleolit manzilgohlarining fanda o'rganilishi tarixi (I qism)	654
A.A.Nishonov	
Farg'ona vodiysida Sevinchxojaxon va Sulton Saidxon kurashi	664
A.A.Aloxunov, B.B.Jo'raqulov	
Tunkat tarixi yozma va arxeologik manbalarda	673
A.A.Nishonov	
Sevinchxojaxon xonadoni tarixi manbalarda yoritilishi	677
R.X.Akbarov	
Turkiston yevropalik aholi vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	681
R.X.Akbarov	
Turkiston mahalliy vakillarining davlat dumasidagi ishtiroki	685
S.V.Yo'ldoshev	
Xalq o'yinlarining tarixiy ildizlari va lokal xususiyatlari	691
A.M.Maxmudov	
XX asrning 20-30 yillarda Buxoro amirligi muhojirlari taqdiri	695
A.M.Maxmudov	
Usmon Xo'ja avlodlari qayerda?	698

ADABIYOTSHUNOSLIK

K.A.Topvoldiyev	
Use of antonyms in Russian fiction and in religious self-consciousness	701
H.K.Sabirov	
Средняя Азия в путевых заметках Ф.С.Ефремова	706
A.P.Kosimov	
Конвергенции наследия Т.Муро́да с духовным богатством национальной и мировой культуры	710
H.A.Jo'rayev, Y.I.Nishanov	
Yusuf qissasi syujetining sayyorlik omillari	715
H.M.Karimova	
Отражение времени: концепция исторического романа в литературе	718
Y.I.Nishanov	
Umuminsoniy g'oyalar ifodasida ijodiy ta'sirning o'rni	722
I.H.Doroina	
«Отражение современных социальных реалий в современной Русской литературе»	726
Э.Ф.Гиздулин	
Мотив пандемии в художественной постапокалиптической фантастике	729
X.Sharifiddinov	
Zamon qiyofalangan tarixiy roman	732
E.Ibragimova, N.Sharafutdinova	
Teonimik tushuncha ifodalovchi mifologik obrazlar	735
G.V.Abdullayeva	
Lof she'rlar poetikasi va badiiy-estetik funksiyasi	738
S.A.Xodjayev, Ch.I.Turg'unova	
O'zbek va jahon folklori namunalarida uchlik va beshlik timsollarining poetik kombinatsiyalari	745
X.A.Abdulxamidova, D.U.Jamoliddinova	
Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning badiiy ifodalanishi	749
X.J.Jamolova	
Zullisonaynlik an'anasi va ijodiy ta'sir masalalari	752
M.M.Xamidov	
O'zbek tarixiy romanlarida qahramon talqini masalasiga doir	755
R.M.Umurzakov	
Bola obrazining nazariy muammolari	761
J.B.Sayidolimov	
"Vasiyatnoma" – kichik agiografik asar	765



UO'K: 328(470+571):947.08

TURKISTON YEVROPALIK AHOLI VAKILLARINING DAVLAT DUMASIDAGI ISHTIROKI

УЧАСТИЕ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ЕВРОПЕЙСКОГО НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА В ГОСУДАРСТВЕННОЙ ДУМЕ

PARTICIPATION OF REPRESENTATIVES OF THE EUROPEAN POPULATION OF TURKESTAN IN THE STATE DUMA

Akbarov Ravshan Xalimovich

Farg'ona davlat universiteti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Maqolada Turkistonda Rossiya Davlat dumasiga o'tkazilgan saylovlar, o'lkadan saylangan yevropalik aholi vakillari, yevropalik aholi vakillarning turli fraksiyalarga mansubligi, Dumada saylangan komissiya va unda turkistonlik vakillarning ishtiroki, yevropalik aholidan saylangan deputatlarning Duma minbaridan qilgan chiqishlari, hukumatga muxoliflik, agrar masala borasidagi vakillar pozitsiyasi haqida so'z yuritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются выборы в Государственную думу России в Туркестане, представители европейского населения, избранные от края, принадлежность представителей европейского населения к различным фракциям, комиссия, избранная в Думу, и участие в ней представителей Туркестанского края, выступления депутатов, избранных от европейского населения, с трибуны Думы, оппозиция правительству, позиция представителей по аграрному вопросу.

Abstract

The article examines the elections to the State Duma of Russia in Turkestan, representatives of the European population elected from the region, the membership of representatives of the European population to various factions, the commission elected to the Duma and the participation of representatives of the Turkestan region in it, speeches by deputies elected from the European population from the rostrum of the Duma, opposition to the government, the position of representatives on agrarian the question.

Kalit so'zlar: Davlat dumasi, saylovlar, deputat, fraksiya, komissiya, agrar masala, qonun muhokamasi, byuro, muzokaralar

Ключевые слова: Государственная Дума, выборы, депутат, фракция, комиссия, аграрный вопрос, обсуждение закона, бюро, переговоры.

Key words: State Duma, elections, deputy, faction, commission, agrarian issue, discussion of the law, bureau, negotiations.

KIRISH

Birinchi chaqiriq Davlat dumasiga Turkiston o'lkasidan vakillar saylanmagan, chunki Dumaga saylov haqidagi Nizomda Turkistonda alohida qoidalar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bunga sabab, parlamentda milliy o'lkalar vakillari sonining ko'p bo'lishiga yo'l qo'ymaslik edi. Hukumatning bu boradagi pozitsiyasi sababli o'lkada mahalliy aholi va yevropalik aholi uchun alohida saylov okruglari tashkil etish ko'zda tutilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, 1906-07-yillar Rossiya imperiyasida chaqirilgan Davlat dumasi, unga tayyorgarlik, jumladan, Turkiston o'lkasida saylovga tayyorgarlik, saylovlarning kechikishi va sabablari, o'lkadan saylangan vakillar, o'lkadan saylangan vakillarning qaysi fraksiyaga mansub ekanligi kabi masalalarning tarixiy aspekti ko'rsatilgan. Bu borada tarixchi S.V.Darchiyeva, T.V.Kotyukova, A.V.Pyaskovskiy, L.M.Kantor, A.V.Smetaninlar [3,4,5,6,15] chuqur tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlarda imperiya hududi bo'ylab o'tkazilgan saylov ishlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, Turkiston o'lkasida olib borilgan ishlar, turkistonlik vakillarning Davlat

dumasidagi faoliyati umumiy tarzda ko'rib chiqilgan, xolos. Shuni hisobga olib, ushbu maqolada o'lkamizda Davlat dumasini saylovlariga tayyorgarlik, uning o'tkazilishi va natijalari haqida ma'lumotlar berishga harakat qilindi.

DOLZARBLIGI

Demokratik tamoyillar asosi bo'lgan Davlat dumasini va unga mutanosib ravishda saylov tizimining joriy etilishi mamlakatda yuzaga kelgan inailobiy vaziyat, qolaversa chet ellik sarmoyadorlarning qat'iy talabi edi. Hukumatning bu boradagi pozitsiyasi sababli o'lkada mahalliy aholi va yevropalik aholi uchun alohida saylov okruglari tashkil etish ko'zda tutilgan. Shu bilan birgalikda, saylovchilar sonida ham nomutanosibliklar bo'lgan. Rossiya guberniyalarida bitta deputat uchun odatda 250 ming saylovchi belgilangan bo'lsa, Farg'ona viloyatida mahalliy aholi uchun 786 ming saylovchi bir deputat saylashi ko'zda tutilgan [15.25].

NATIJA VA MUHOKAMA

O'lkada rus aholisi kam bo'lsa-da, yevropalik vakillar soni mahalliy aholi tomonidan saylanadigan deputatlar sonidan kam bo'lmasligi kerak edi. Bu masalada Ichki ishlar vaziri P.N.Durnovga taqdim etilgan dastlabki loyihada Turkistondan Davlat dumasiga 15 (7 nafari yevropalik, 8 nafari mahalliy aholidan) vakil saylanishi ko'zda tutilgan edi. Keyinchalik, general-gubernator N.N.Tevyashov (vaqtinchalik – *muallif*) mahalliy aholi uchun 16 mandatni taklif qilgan. Uning o'rniga tayinlangan D.I.Subbotich ham ushbu loyihani ba'zi o'zgartirishlar bilan tasdiqlab, 1906-yil yanvarda D.M.Solskiy boshchiligidagi komissiyaga jo'natadi [4.40-41]. Bu mahalliy ma'muriyat dastlab vakillar tarkibini belgilashda tub aholi umumiy sonining qisman hisobga olganligini ko'rsatadi. Ayni paytda ko'chirilgan yevropalik aholidan vakillar sonini ko'paytirmaslikka harakat qilingan. Chunki o'lkaga ko'chirilgan yevropalik aholi, asosan, inqilobiy kayfiyatda bo'lib, saylov natijalari hukumat istagan natijani bermasligi ham mumkin edi.

Uzoq munozaralardan keyin, 1906-yil 23-aprelda Turkiston o'lkasi uchun alohida saylov qoidalari tasdiqlandi [13.31-33]. Bu haqidagi xabar Toshkentga 1906-yil 2-may kuni yetib keladi va ertasi kuni "Turkestanskije vedomosti" gazetasida e'lon qilindi [6.525]. 1905-yil 11-dekabrda Rossiya Davlat dumasiga saylov to'g'risidagi qonunga ko'ra, Rossiyaning Yevropa qismidagi guberniyalarida 1 nafar deputat uchun 250 ming, chekka guberniyalari uchun esa 350 ming saylovchi belgilangan [3.89]. Turkistonda esa Davlat dumasiga saylovchilar soni hududiy qilib belgilandi. Qoidalarga ko'ra, Turkiston o'lkasidan Dumaga 13 nafar (mahalliy aholidan 6, yevropalik aholidan 7 nafar) deputat saylanishi belgilandi [12.31].

Saylovlarni o'tkazish iyul oxiri va avgust oylariga belgilangan. Masalan, Samarqand viloyati bo'yicha Samarqand, Kattaqo'rg'on, Xo'jand, O'ratepa shaharlarida mahalliy aholi o'rtasida saylovning birinchi bosqichi 25-iyulga, volostlardan vakillarni saylash 27-iyulga, uyezd syezdlari esa 28-iyulga belgilangan [14.251].

Toshkent shahrida saylov yevropalik aholi uchun ikkita, mahalliy aholi uchun to'rtta uchastka tashkil etiladi. Toshkent shahri bo'yicha yevropalik aholi uchun 1-uchastkadan 13, 2-uchastkadan 27 saylovchi (ruslardan jami saylovchilar 43389 kishi – *muallif*), mahalliy aholi uchun Shayxontohurdan 11, Sebzordan 10, Beshyog'ochdan 9, Ko'kchadan 10 saylovchi (Toshkent shahri bo'yicha mahalliy aholidan jami saylovchi 135964 – *muallif*) saylanishi belgilandi [11.3].

Buxoro amirligi hududida yashovchi rus fuqarolari Kattaqo'rg'on uyezdida saylovchi sifatida ishtirok etadigan bo'ldilar [4.52].

1906-yil 9-iyul kuni esa Davlat dumasini tarqatish haqida podsho manifesti e'lon qilinadi. Manifestda Duma davlat asoslariga zarar yetkazish va inqilobiy harakatlarni avj oldirishda ayblanadi [5.14]. Bu xabar Toshkentga 12-iyul kuni yetib keladi va saylov kampaniyasi to'xtatiladi [4.55]. Natijada avgust-sentabr oylariga mo'ljallangan saylovlar ham to'xtatildi va o'lkada aholisi vakillari Dumaning birinchi chaqirig'ida ishtirok etishga ulgurmadilar.

Ikkinchi chaqiriq Rossiya Davlat dumasiga saylovlar imperiya bo'yicha 1907-yil yanvar – fevral oylariga belgilangan [5.40]. Viloyatlardagi saylovlar 27-fevralga [9.179], Yettisuv viloyatida esa 1907-yil 3-aprelga belgilangan [6.529]. O'lkada saylovning turli muddatlarda o'tkazilishi saylovchilar ro'yxatining shakllantirilishi bilan bog'liq edi.

Yevropalik aholidan viloyatlar bo'yicha quyidagi deputatlar saylanadi: Sirdaryo viloyatidan N.L.Kolendzyan, Yettisuv viloyatidan M.A.Gavrilov, Yettisuv kazak bo'linmalaridan Ya.I.Yegoshkin

TARIX

[6.535-536], Samarqand viloyatidan K.M.Aframovich, Kaspiyorti viloyatidan I.Y.Mironov [9.177], Farg'ona viloyatidan esa A.P.Drukar [8].

Turkiston o'lkasidan II Davlat dumasiga saylangan yevropalik aholi vakillarining fraksiyaga mansubligi (1-jadval) [1.30-31, 2.20-21, 10.61]:

1-jadval

No	Deputatlar	Qaysi fraksiyaga mansubligi
O'lkada yashovchi yevropalik aholi vakillari		
1	V.Nalivkin	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
2	K.M.Aframovich	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
3	I.Y.Mironov	Sotsial-demokratlar fraksiyasi
4	M.Gavrilov	Mehnatkashlar (Trudoviklar)
5	I.L.Kolendzyan	Mehnatkashlar (Trudoviklar)
6	A.P.Drukar	Sotsial-inqilobchilar,
7	L.I.Yegoshkin	Kazaklar guruhi

Rossiya Davlat dumasida o'lkadan saylangan mahalliy vakillarga nisbatan yevropalik aholi vakillari faol bo'lganlar. Mahalliy aholi vakillari Dumada atigi ikkita komissiyaga a'zo bo'lgan bo'lsalar, yevropalik vakillar asosan muvaqqat komissiyalarga saylangan bo'lsalar-da, anchagina faolliklari yaqqol seziladi. Masalan, V.Nalivkin – Harbiy dala sudlari haqidagi qonun loyihasi muhokamasi komissiyasi, Mahalliy va o'z-o'zini boshqarish komissiyasi, So'rovnomalar komissiyasiga [2.37-42] Byudjet komissiyasiga [7.987], I.L.Kolendzyan – Xalq ta'limi komissiyasiga [7.90], K.M.Aframovich – Davlat dumasiga keluvchilarni qabul qilish komissiyasiga, agrar komissiyaga saylangan [1.39].

1907-yil 2-aprel kuni Dumada agrar masala ilk bor muhokama qilingan. 17-aprel kuni esa Moliya vazirligi bu masalada maxsus ma'ruza qiladi [2.160]. 1907-yil 3-may kuni Dumada ilk bor bevosita Turkistondagi lalmi va o'zlashtirilmagan yerlardan soliq olishni tartibga solish haqidagi qonun loyihasi muhokama qilinadi. 11-may kuni I.L.Kolendzyan Turkistonda lalmi va o'zlashtirilmagan yerlardan soliq olishni tartibga solish haqidagi qonun loyihasi yuzasidan ma'ruza qiladi [1.90]. Bu masalada Dumadagi asosiy muhokama 22-may kuni o'tkaziladi.

Davlat dumasining 1907-yil 24-may kungi kechki majlisga Moliya vazirligining 1907-yil 29-mart kuni taklif qilgan Turkistondagi lalmi va o'zlashtirilmagan yerlardan olinadigan soliq tizimini 1907-yil uchun saqlanib qolishi haqidagi so'rovnomasi (2-muhokamadan keyin) tasdiqqa qo'yiladigan bo'ldi [2.1164].

26-may kungi 48-majlisda "Turkistondagi lalmi va o'zlashtirilmagan yerlar haqida"gi Qonun loyihasi yana bir bor muhokama qilinadi. Qonun loyihasi muhokamasida Sirdaryo viloyatidan saylangan Kolendzyan so'zga chiqadi. U Turkiston aholisi bugunga qadar ma'muriy sharoitlardan chetda ushlab kelinganligi, ko'chirish siyosati qoniqarli tarzda tashkillanmaganligi, mahalliy aholi tomonidan to'lanayotgan soliqning ortiqcha qismini bekor qilish haqidagi aniq me'yorlarini ishlab chiqilmaganligi, o'lkadagi harbiy boshqaruv tizimini zudlik bilan bekor qilish zarurligi, agar boshqaruv tizimi mahalliy xalq qo'liga berilganida soliqqa tortiladigan yerlar hajmi tezroq aniqlanib, Turkistonga ko'chirilgan aholini joylashtirish ishlari ham tezroq hal bo'lgan bo'lardi, deb ta'kidladi [2.1251-1252].

1907-yil 29-maydagi kechki 51-majlisda Turkistondagi lalmi va o'zlashtirilmagan yerlardan olinadigan davlat yer soliq tizimini 1907-yil uchun cho'zish masalasi hal qilinadi va 1907-yil uchun o'lkaning Samarqand, Yettisuv, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlaridan olinadigan soliq miqdorlari kamaytirildi [2.1478].

Turkistondan saylangan yevropalik vakillar huquqiy va milliy masalalarda faol bo'lganlar. Ular amaldagi hukumatga nisbatan muxolifat pozitsiyasini tutganlar. Masalan, V.Nalivkin Turkistondan saylangan vakillar orasidan Duma minbaridan ilk chiqish qilgan. U 1907-yil 30-mart kungi 19-majlisda sotsial-demokratik fraksiya nomidan Adliya vaziri ta'kidlaganidek, rus sud tizimi adolat mezonini emas, balki 1905–1906-yillarda jazolash quroli bo'lganligini ta'kidlagan [2.1463, 1754].

Turkistonlik deputat I.E.Mironov 17-aprelda rais va deputatlar munosabati haqida, 1-iyun kuni esa Adliya vazirligining muhim ishlar bo'yicha sud tergov haqida chiqishlar qiladi [1.106].

Samarqandlik deputat K.M.Aframovich 3-aprel kungi Dumaning 21-majlisida Kavkazdagi ish tashlashlar haqida gapirgan bo'lsa, 6-aprel kuni ushbu ish tashlashlarga nisbatan bo'lgan hukumat nuqtai nazarini tanqid qilgan [7. 1570, 1694-1698.]. Lekin vakillar qanchalik faol bo'lmasin, Nikolay II 1907-yil 3-iyul kuni Dumani tarqatib yuborish, yangi Dumani shakllantirish haqida Manifest qabul qiladi. Saylov to'g'risidagi yangi qonunda ba'zi chekka o'lkalar qatori Turkistondan vakillar saylash huquqi bekor qilinadi.

XULOSA

Turkistondan saylangan vakillarning mahalliy aholi vakillariga nisbatan dadil va faol bo'lishiga bir necha sabablarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ular: yevropalik vakillar o'zlarini o'lkaning haqiqiy hokimidek his qilganliklari, o'lkadagi yevropalik vakillarning markaziy guberniyalardagi siyosiy partiyalar bilan bevosita bog'liqligi, ularning siyosiy jihatdan mahalliy vakillarga nisbatan ustunligi bilan izohlash mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Государственная Дума. Указатель к Стенографическим отчетом, второй созыв, 1907 год. заседания 1-53 (20 февраля – 2 июня 1907 года). – Санкт-Петербург, 1907. – 322 с.
2. Государственная Дума. Указатель к стенографическим отчетам. Второй созыв 1907 год. Сессия II. – С. – Петербург, 1907. – 2230 с.
3. Дарчиева С.В. Государственная дума Российской империи и вопросы экономического, политического и культурного развития Северного Кавказа (1906–1917 гг.). – Владикавказ, 2015. – 260 с.
4. Котюкова Т.В. Туркестанское направление думской политики России (1905-1917 гг.). – Москва, 2008. – 201 с.
5. Мусульманские депутаты Государственной думы России. Сборник документов и материалов. – Уфа: Китап, 1998. – 378 с. // Составитель Л.А.Ямаева.
6. Пясковский А. Революция 1905-1907 годов в Туркестане. – Ташкент, 1958. – 576 с.
7. Стенографические отчеты: Т.1./ Гос. Дума. Второй созыв. 1907 г. Сессия вторая. – Санкт-Петербург, 1907. – 1158 с.
8. Туркестанские ведомости. 1907. 6 марта.
9. Туркестанский сборник. Т. 417.
10. Туркестанский сборник. Т. 422.
11. ЎзМА. И-274 фонд. 1-рўйхат. 13-йиғма жилд. 3-варақ.
12. ЎзМА. И-1 фонд. 17-рўйхат. 531-йиғма жилд. 31-варақ.
13. ЎзМА И-1 фонд. 17-рўйхат. 531-йиғма жилд. 31-33-варақлар.
14. ЎзМА И-22 фонд. 2-рўйхат. 122-йиғма жилд. 251-варақ.
15. Циунчук Р.А. Государственная дума Российской империи: этноконфессиональное и региональное измерения. Автореф. канд.ист.наук. – Казань, 2004. – 47 с.